



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2023  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

профессор **Д.Х.Асланова**

**Масъул котиб:**

профессор **М.Қ.Пардаев**

**Муҳаррирлар:**

**Ф.А.Сафаров**

**Ш.З.Ўрозов**

**Техник муҳаррир:**

**А.Н.Холиқулов**

**Корректор:**

**С.А.Бабаназарова**

**Саҳифаловчи:**

**Ҳ.Н.Очилова**

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида  
тарқатилади.

**Таҳририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

[samisiservis@mail.ru](mailto:samisiservis@mail.ru)

**Таҳририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар  
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

**Таҳрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-  
тика кўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ Самарқанд филиали директори,  
иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Р.Болтабаев** – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва  
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ декани, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ доценти, и.ф.д.

<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Вехзоджон Усмонович Шермухамедов</b> Тижорат банклари депозит сиёсатининг қийосий таҳлили	149
<b>Хуббим Аскарлович Улашев</b> Иқтисодийнинг келгуси тараққиётида инвестицияларнинг ўрни	153
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Анвар Нематович Холиқулов</b> Хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни оширишнинг кўп омилли корреляцион-регрессион таҳлили	158
<b>Зайнаб Баратовна Эшпулатова, Шахзод Шохрухович Усманов</b> Корхоналар даромадларининг молиявий ҳисобот элементи сифатидаги тавсифи	162
<b>Бобур Фарходович Боронов</b> Ёғ-мой саноати корхоналарида пул оқимлари ҳақидаги ҳисоботни такомиллаштириш	166
<b>БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ</b>	
<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Мамлакатимиз ёшларининг иш билан бандлик даражасини ошириш: муаммо ва имкониятлар	171
<b>Шаҳобиддин Зиядуллаевич Ўрозов</b> Марказий Осиё илм-фани ривожига Амир Темур ва Темурийларнинг туган ўрни	175
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Умар Худайбердиев, Севара Абдиназаровна Бабаназарова</b> Мактабгача таълим – таълим ва тарбиянинг асосидир.	180
<b>Тўлқин Кулибаевич Мардиев, Дилноза Акрамовна Искандарова</b> Инглиз ва ўзбек тилларида қурилиш терминларининг умумий семантик жиҳатлари	184
<b>Садулла Шодиевич Уразов</b> Таълим хизматлари кластери – таълим соҳасини ривожлантириш ва бошқариш стратегияси сифатида	188
<b>Ҳилола Нематовна Очилова</b> Таълим хизматларининг ўзига хос хусусиятлари	192
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
Беморлик, фақирлик ва муҳтожлик сабаблари. Доно саволга доно жавоб.	197
<b>ИБРАТЛИ БИТИКЛАР</b>	
Инсоннинг руҳияти ва кечинмалари ҳақида савол-жавоблар.	198

# МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА ИНВЕСТИЦИЯ

**Bexzodjon Usmonovich Shermuxamedov** – Toshkent moliya instituti dotsenti, PhD

## TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATINING QIYOSIY TAHLILI

**Annotatsiya:** maqolada O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan davlat tijorat banklari va xususiy banklarning depozit siyosati tahlil qilingan. Tahlil jarayonida depozit siyosatiga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlar va omillar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar umumlashtirilgan. Davlat tijorat banklari va xususiy banklar depozitlarni jalb qilish amaliyoti qiyosiy baholangan. Tahlil natijalariga muvofiq davlat tijorat banklari va xususiy banklarning depozit siyosatini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** depozit, depozit siyosati, muddatli depozitlar, depozit operatsiyalari, passiv operatsiyalar, marketing siyosati, depozit bazasi.

**Kirish.** Depozit siyosati tijorat banklarini moliyalashtirishda alohida rol o‘ynaydi. Iqtisodiyotda mablag‘larni jalb qilish shartlarining o‘zgarishi muhim o‘zgaruvchanlik doimiy amalga oshirish imkoniyatini belgilaydi. Depozitni shakllantirish nuqtayi nazaridan uslubiy asoslarni takomillashtirish dolzarbligini belgilaydigan resurslar uni amalga oshirish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar keltiriladi.

Tijorat banking depozit siyosatini amalga oshirishda depozit siyosatining obyektlari va subyektlari, uning vazifalari, maqsadi, tamoyillari muhim ro‘l o‘ynaydi. Depozit siyosatining obyektlariga quyidagilar kiradi: bankning qarz mablag‘lari va qo‘shimcha bank xizmatlari. Tijorat banki depozit siyosatining subyektlari: Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan mega-regulatorlar, chakana va korporativ mijozlar; banking resurs bazasini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan ayrim davlat muassasalaridan iborat [1].

Shu sababdan ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha chiqarish belgilangan [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Davlat va xususiy banklar banklar tomonidan amalga oshiriladigan depozit siyosatining asosiy o‘zagini tashkil etadi. Xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlardan ma’lum bo‘lishicha iqtisodchi olimlar bank depozitining iqtisodiy mohiyatiga turlicha yondashadilar.

Gerritsen va boshqalar Gollandiya iqtisodiyotida aholi depozitlarining harakatini 2004-2014-yillar oralig‘ida tahlil qilgan. Ularning fikriga ko‘ra aholining banklarga depozit joylashtirishi ushbu depozitlar foiziga katta bog‘liqdir. Ammo bu bog‘liqlik iqtisodiy inqiroz bo‘lmagan davrga to‘g‘ri kelib, aksincha iqtisodiy inqiroz davrida depozitlar asosan yirik banklarga joylashtirilishi kuzatilgan. Hatto aholining bu istaklariga depozitlarni sug‘urtalash mexanizmi ham ta’sir qilmagan[3].

A.V.Gribanovni tadqiqotlarida tijorat banking depozit siyosati-bank siyosatining ajralmas qismi ekanligi qayd etilib, kredit orqali jalb qilingan mablag‘larni o‘zgartirish jarayonining bir qismi sifatida talqin etildi. Doimiy depozitlarni moliyalashtirish orqali ma’lum darajadagi rentabellik va likvidlikni ta’minlash uchun investitsiya resurslari instituti va o‘zaro bog‘liq kompleks strategik rejalashtirish va samarali resurslar bazasini boshqarishga yo‘naltirilgan harakatlar, usullar majmui deb ta’riflanadi[4].

G.S.Panova fikricha, depozit siyosati mijozlarning omonatlarini jalb qilish va ularni samarali boshqarishga yo‘naltirilgan bank siyosati hisoblanadi[5].

G.N.Beloglazovaning depozit siyosatiga doir ilmiy tadqiqotlarida - tijorat banklarida mavjud bo‘lgan turli omonatlarga vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish jarayoni deb ifoda etiladi[6].

Ortiqovning fikricha, tijorat banklari depozit strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo‘llashda tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining depozit siyosatida qo‘llanilayotgan taktik vositalarning qay darajada depozit strategiyasiga mos kelayotganligini aniqlash imkoniyati tijorat banki depozit bazasining barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish asosida yuzaga keladi [7].


Depozit siyosati bo‘yicha yuqorida keltirilgan ta’riflarda qarz mablag‘larini samarali joylashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar yig‘indisi deb ifodalash mumkin. Ma’lum maqsadlarga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar va harakatlar majmui, bankning depozit siyosati konsepsiyasi talqinlarini umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash kerakki, aksariyat mualliflar banklar tomonidan depozit siyosati resurslarni jalb qilish strategiyasi va taktikasi sifatida taqdim etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. O‘zbekiston tijorat banklari resurs bazasini takomillashtirish va bunda aholi omonatlarining ahamiyatini oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Davlat Statistika qo‘mitasining 2016-2021-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Maqolamizda Davlat va xususiy banklari depozit siyosatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir etuvchi omillar ta’sirini baholashga harakat qilamiz.

Hozirda yurtimizda 33 ta tijorat banklari faoliyat yuritmoqda? shundan davlat ulushi mavjud tijorat banklari 13 tani tashkil qiladi.

2021-yil yakunlariga ko‘ra kapitalida davlat ulushi bo‘lmagan tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida bank depozitlarining 76,1 foizi to‘g‘ri kelgan holda, kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi 2017-yil 45,8 foizdan 2021-yilda 30,1 foizgacha tushgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda davlat ulushi yuqori tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida depozit mablag‘larining ulushini oshirish kelgusida mazkur banklarning depozit bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.



**1-rasm. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar dinamikasi (foizda) [8].**

Tijorat banklarining depozitlari jalb qilish amaliyoti tahlili natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, yirik tijorat banklari depozitlari hajmi mamlakatimiz jami depozitlarining 50 foizini tashkil qilayotganligi bank tizimi depozit bazasining mustahkamlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro bank amaliyotida mamlakatdagi banklarning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda banklar konsentratsiyalashuv koeffitsiyentidan keng foydalaniladi. Ushbu


ko'effitsiyentga ko'ra, mamlakatda faoliyat yurituvchi 3 ta yirik tijorat bankining bank xizmatlari bozoridagi ulushi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning 35 foizdan past bo'lishi mamlakatdagi bank xizmatlari bozorida raqobat muhiti yaxshi emasligini va bank tizimida monopollashuv mavjudligidan dalolat beradi. Bundan tashqari mamlakatimizda kapital bozori, jumladan, banklararo resurs bozorining yaxshi rivojlanmaganligi, tijorat banklarining ushbu bozordan resurs jalb qilish imkoniyatini ham cheklab qo'yadi. Tijorat banklari depozitlarining mustahkamligi bevosita banklarga jalb qilingan depozitlar muddatiga ham bog'liqdir.

**1-Jadval**

**Davlat ulushi mavjud banklarda depozitlarning kreditlardagi ulushi[9].**

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	O'zgarish darajasi (2021-2016)
Davlat ulushi mavjud banklar depozitlari	24812	40311	47659	65740	82461	104 248	79436
Davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining kreditlaridagi ulushi	56,03	40,88	32,03	35,22	33,73	37,2	-18,83

Davlat ulushi mavjud banklar depozitlari o'sishi borasida bunday ijobiy xulosaga kela olmaymiz. Bunga sabab, 2016-yilda bu kabi banklar depozitlari 24812 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 104 248 mlrd. so'mni tashkil etgan va umumiy o'sish 79436 tashkil etgan. Bu holat davlat ulushi bor banklar kreditlari tarkibida depozitlarning hissasini tushirib yuborganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining ularning kreditlaridagi ulushi 2016-yilda 56,03 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib esa 37,2 tashkil etgan hamda shu besh yil davomida bu ko'rsatkich -18,83 foiz punktga pasaygan.



**2-rasm. Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda depozitlar va kreditlarning solishtirma ma'lumoti[10].**

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlaridan ko'rsak bo'ladiki, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning umumiy bank tizimi kreditlarida 10-15 foiz ulushga ega. Bu bank tizimining diversifikatsiyalanmaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar kreditlarining o'sishi davlat ulushi mavjud banklar kabi shiddat bilan oshib borgani yo'q. Xususan, 2016-yilda ular tomonidan ajratilgan kreditlar 8329 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 32491 mlrd. so'mni tashkil etgan va ko'rilayotgan davrda o'sish 290,09 foizni tashkil etgan. Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning depozit bazasi kreditlari kabi o'sish xususiyatiga ega bo'lmagan. Jumladan, 2016-yilda bu kabi banklarning jami depozitlari 12371 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 32286 mlrd. so'mni tashkil etgan va shu davrda 161 foizga o'sgan. Bu toifadagi banklarning davlat ulushi mavjud banklardan farqli jihati shundaki,

ular kreditlarini o‘zlarining depozitlari hisobiga ajratadi. Davlat ulushi mavjud banklarda esa depozitlardan tashqari turli fondlar va davlat pullaridan kredit ajratishadi. Ko‘rilayotgan davrda, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar depozitlarining kreditlarga nisbati 2016-yilda 148,53 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda 99,37 foizni tashkil etganligi so‘zimiz isboti hisoblanadi. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud banklar aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun aholi va yuridik shaxslar depozitlariga unchalik katta ehtiyoj sezmaydi. Aksincha, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar uchun esa depozit bazasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat ulushi bo‘lmagan banklarda aholining bo‘sh turgan pul mablag‘larini depozitga jalb qilish uchun sifatli chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun asos mavjud.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shunday xulosa qilish mumkinki – davlat ulushi mavjud banklar aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun aholi va yuridik shaxslar depozitlariga katta ehtiyoj sezmaydi. Aksincha, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar uchun esa depozit bazasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida, davlat ulushi bo‘lmagan banklarda aholining bo‘sh turgan pul mablag‘larini depozitga jalb qilish uchun sifatli chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun asos mavjud. Bank tizimidagi aholi depozitlarining ahamiyatiga nazar tashlasak, mamlakatimizda tijorat banklari uchun aholi depozitlaridan ko‘ra boshqa resurslar asosiy manba bo‘lib qolmoqda. Yakuniy xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda tijorat banklari depozitlari hajmini oshirish va shuningdek, aholi depozitlarini jalb qilish mexanizmini ishlab chiqishi uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlarni olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish jarayonlarini yakunlash orqali moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish mumkin;
- moliya bozorlarida teng raqobat sharoitlari shakllantirish;
- kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish.
- xizmat ko‘rsatishni modernizatsiyalash maqsadida banklarning infratuzilmalarini yangilash;
- kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish;
- aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlar keng joriy qilish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Калкабоева Г.М. Теоретические аспекты депозитной политики коммерческих банков. / Г.М. Калкабоева, Н.В. Невежина // Актуальные научные исследования в современном мире. - 2017. - № 1-7 (21). - С. 120-123.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2022.
3. Dirk F. Gerritsen, Jacob A. Bikker and Mike Brandsen (2017). Bank switching and deposit rates: Evidence for crisis and non-crisis years. Utrecht University School of Economics Tjalling C. Koopmans Research Institute Discussion Paper Series 17-18. pp 16.
4. Грибанов А.В. Совершенствование депозитной политики в контексте устойчивого развития коммерческого банка. Саранск 2019. стр. 3
5. Панова, Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. Москва: ДИСИПП. 1997. стр. 464.
6. Белоглазова Г.Н. Банковское дело. Москва: Финансы и статистика. Учебник. 2014. стр. 591.
7. Ortikov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. “Moliya, pul muomalasi va kredit” i.f.n. diss. avtoreferati. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – 19.09.2008. –Т., 2008. -20 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tayyorlandi <https://cbu.uz/oz/statistics>

<p><b>Б.Шермухамедов</b>  <b>Сравнительный анализ депозитной политики коммерческих банков</b></p>	<p><b>B.Shermukhamedov</b>  <b>Comparative analysis of deposit policy of commercial banks</b></p>
<p><b>Аннотация:</b> В статье проанализирована депозитная политика государственных коммерческих банков и частных банков, действующих в Республике Узбекистан, а также обобщены показатели, относящиеся к условиям и факторам, влияющим на депозитную политику. По результатам сравнительного анализа практики привлечения во вклады государственных коммерческих банков и частных банков разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию депозитной политики государственных коммерческих и частных банков.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> депозит, депозитная политика, срочные депозиты, депозитные операции, пассивные операции, маркетинговая политика, депозитная база.</p>	<p><b>Abstract:</b> In the article the deposit policy of the state commercial banks and private banks operating in the Republic of Uzbekistan is analyzed, and the indicators related to the conditions and factors affecting the deposit policy are summarized. According to the results of the comparative analysis of the practice of attracting deposits of state commercial banks and private banks, scientific proposals and practical recommendations have been developed to improve the deposit policy of state commercial banks and private banks.</p> <p><b>Keywords:</b> deposit, deposit policy, term deposits, deposit operations, passive operations, marketing policy, deposit base.</p>

Хуббим Аскарлович Улашев – СамИСИ, “Иқтисодиёт назарияси” кафедраси доцент в.б.

### ИҚТИСОДИЁТНИНГ КЕЛГУСИ ТАРАҚҚИЁТИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

<p><b>Аннотация:</b> мақолада мамлакатга киритилаётган ҳар бир хорижий инвестиция мамлакатнинг иқтисодий ўсишини белгиловчи муҳим омил бўлиб хизмат қилишига урғу берилади. Иқтисодиётга инвестицияларни жалб қилишни жадаллаштириш бўйича таклифлар билдирилган.</p> <p><b>Калит сўзлар:</b> инвестиция, ялпи ички маҳсулот, иқтисодий омил, иқтисодий ўсиш, хизмат, хорижий инвестиция, фаол инвестиция, миллий иқтисодиёт, саноат тармоқлари, инвестициявий муҳит.</p>
---

**Кириш.** Ўзбекистон Республикасида фаолият кўрсатаётган кичик саноат корхоналарини жадал ривожлантириш, техник жиҳозлаш, юксак технологиялар асосида ишлайдиган автомобилсозлик, газ-кимё, электр техникаси, тўқимачилик, озик-овқат, фармацевтика, ахборот ва телекоммуникация тармоқлари ҳамда бошқа йўналишлардаги янги ва замонавий ишлаб чиқариш қувватларини ташкил этишга қаратилган фаол инвестиция сиёсатини юритишга алоҳида аҳамият қаратилмоқда.

Инвестиция сиёсатининг асосий мақсади хорижий инвестицияларни кўпроқ жалб қилиш орқали иқтисодиётимизнинг реал сектори салоҳиятини ошириш, мамлакат ҳудудларида янги, замонавий, рақамли технологияларга асосланган ишлаб чиқариш корхоналарини ташкил этиш, янги иш ўринларини кўпайтириш ва бунинг натижасида мамлакатни барқарор ва мутаносиб тарзда ижтимоий ва иқтисодий томонлама ривожлантиришдир.

Мамлакат иқтисодиётига киритилаётган инвестициялар миқдори ва унинг динамикаси мамлакатнинг иқтисодий ўсиш суръатларини белгиловчи асосий омиллардан бири бўлиб ҳисобланади.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Иқтисодиёни модернизациялашнинг муҳим бир йўналишини англашга ва уни амалга ошириш мақсадида инвесторларни кенг жалб этиш

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

9.03.2023 йилда теришга берилди. 22.03.2023 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0016 А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023